

# TONG Yulduzi

№17 (66402)  
2003 yil  
28 aprel  
dushanba  
Sotuvda  
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi  
Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan.

## «SOS - BOLALAR MAHALLASI»



Shahrimizdagi «Bolalar mahallasi» haqida eshitganmisiz?!

Ha... Qulog'ingizga chalingan bo'lsa, ajab emas... Keling, ertaknamo mahallamiz bilan sizlarni yaqindan tanishtiray.

Shu nomli Xalqaro Jamiyatning asoschisi German Gmayner 1919 yil Avstriyaning Voldberg qishlog'ida tug'ilgan. Onadan yosh ajralib qolib, opasi tomonidan tarbiyalangan. Ikkinchi Jahon urushi natijasida minglab


topdi. 2000 yil Toshkentda 14 oilaviy uylardan va bog'chadan iborat birinchi «SOS - Bolalar mahalla»si o'z faoliyatini boshladi.

Hozirda mahallada barcha qulayliklarga ega bo'lgan uylarda o'n to'rt nafar ayol- o n a - tarbiyachilar mehribonlik uylaridan

*O'z uyim - o'lan to'shagim*

keltirilgan yuzdan ortiq turli yoshlardagi bolalarni issiq bag'irlarida ulg'aytirmoqdalar. Bu yerdagi har bir xonadonda 6-7 nafar bolalar opa-singil, aka-uka bo'lib, ahil yashashmoqda.

Barcha tengqurlari qatori ular ham darslaridan bo'sh vaqtlarida o'zlari qiziqqan mashg'ulotlari bilan shug'ullanadilar. Bunga mahallada to'la sharoit yaratilgan. O'nga yaqin to'garaklar muntazam faoliyat olib bormoqda. Duradgorlik, ustachilik, poyafzal ta'mirlash, tikuvchilik,



to'qish, pishiriqlar tayyorlash, futbol, tennis, ingliz tili, adabiyot, rassomchilik, ashula varaqs... Eh-he, zerikishga vaqt yo'q!... Mahalladagi «Adabiyot» to'garagi a'zolarining dil izhorlari sizlarni befarq qoldirmaydi, degan umiddamiz...

Hikoya qilayotganimiz «SOS-Bolalar mahallasi»da tarbiyachi xolalar ham bo'lib, onalarning dastyori, bolajonlarning katta opalaridir. Dars tayyorlatish deysizmi,

- Men Barno Qodirova, 6-sinfda o'qiyman. Mahallamizdagi uylardan birida onam, uka-singillarim bilan yaxshi yashayapmiz. Bu yerda hayot qizg'in. Hammamiz bir ota-ona bolalaridekmiz. Ayniqsa, yaqindagina o'tkazgan sumalak saylimizda yana ham mazza qildik. O'zi har yili sumalak, halim qilib, mahallamizdagilar, onalarimiz bizga tortiq qilishadi. «Me'dangiz to'q bo'lib o'singlar», deya qayg'urishadi. O'zimiz bolalar uyidan bu yerga kelgan bo'lsak-da, xuddi chaqaloqlikdan birga yashayotgandekmiz... Bu mahallamizning o'zi ham, odamlari ham fayzli... Ayniqsa shu kunlarda hovlimizni bir ko'rsangiz edi. Ukalarim bemalol yam-yashil maysalarga dumalab-dumalab o'ynashadi, qiyqirishib arg'imehoqlar uchishadi. Shundan ilhomlanib, adabiyot to'garagiga qatnashib yurib she'r yozgandim...

**BAHORIM**

Quyoshning tafti ilib,  
O'lkam gullarga to'lib,  
Bulbullar sayrar bog'da,  
Yulduz chaqnar samoda.  
Ha, bahorim go'zallik,  
Sahovat koshonasi.  
Qaynayotgan sumalak,  
Rizqimiz nishonasi...

Feruza Ergasheva 10-sinf o'quvchisi:

- Bizning mahallamiz ajoyib. Men shu joyning 3-uyida yashayman. Singillarim, ukalarim bilan onam bag'irlaridamiz. Mahallamiz direktori Lobar opa Yo'ldosheva menga juda yoqadilar. Ular biz uchun yelib-yuguradilar. Umuman, bu yerda hamma-hamma narsa bizni sog'lom, barkamol, o'ksinmay o'sishimiz uchundir. Mahallamizdagi to'garaklardan raqs, tennis, ingliz tili va adabiyot guruhlariga a'zoman. Bu yerda yashayotganimga bir yildan oshgan. Men mahallamizning eng to'ng'ichi bo'laman. Barcha bolalar o'z ukalarimday bo'lib qolishgan. Mahallamni juda yaxshi ko'raman. Oilam tinchligi mahallam tinchligi demakdir. Shunday mehru muhabbat maskani bo'lgan mahallamning non-tuzini oqlashni niyat qilganman. Bu yerda ota-onamdan erta yetim qolganim aslo bilinmaydi. Boshimni silab o'stirayotgan onajonim, mahalladoshlarim - oilam bor!...

onalari ish bilan biror joyga ketishadigan bo'lsa, bolalar qarovsiz qolmasligi uchun bu xola-tarbiyachilar g'amxo'rlik ko'rsatib turishadi. Mahallada biror bir bayram-tadbirlar, konsertlar tashkilotchisi ham ulardir.

Shunday ijodkor tarbiyachi Xurshida Yusupova ko'ngil kechinmalarini mana bu she'rda ifodalaganlar...

To'g'ri so'zla, to'g'ri yur,  
Nasihat qilar onam.  
Go'daklarga shu amal,  
Sendan yuqadi bolam.  
Agar boshin silasang  
Ollohdan qaytguvsidir.



Shu pokiza dillarning  
Ishonchi ulug' bo'lur.  
Hayoting nurga to'lsin,  
Niyati holis bolam.  
Jajjilar kulgusidan  
Baxtga chulg'ansin olam.

Siz ham «SOS- Bolalar mahallasi»ning do'sti bo'lib qolishni istaysizmi? Biz ham mahallamiz faoliyatiga hayrixohlik bildirgan barcha insonlarni do'stimiz bo'lib qolishlarini istaymiz!

ind: 700143

Manzilimiz: Toshkent shahar, Temur Malik ko'chasi, 2-B uy.

Telefonlarimiz: 60-49-09, 60-49-10.

Aziz bolajonlar, bu maskandagi tengdoshlaringizga maktublar yozing, do'stlashing... Xatlaringizni kutamiz...

Saidaxon ZOKIROVA tayyorladi.

- Men Muhammadolim Mamajaliyev bo'laman. Mahallamizdagi tengdoshlarim «Ronaldo» deyishadi. Rost-da, kelgusida O'zbekistonning «Ronaldo»si bo'lsam, degan orzuim bor. Bunga harakat qilayapman. Mahallamizdagi futbol jamoasiga Davron aka murabbiylar. Bir yil davomida rosa shug'ullanib, turli mahallalardagi bolalar futbol jamoalari bilan bellashdik. Bir marta biz shunday bellashuvlarda yaxshi o'rin ham oldik. Jamoamiz ham, o'zimiz ham hali kichkina, lekin rejalarimiz katta! Nasib bo'lsa mahallamiz sharafigini sport bilan ham olamga yoyamiz. Bundan tashqari men yana kurash to'garagiga ham qatnashayapman. Oyijonimni va mahallamizni ishonchlarini oqlashga harakat qilayapman. Bu yerga kelganimga bir yildan oshgan bo'lsa-da, ukalarim, singlim, onam, mahallamizdagi hamma-hammalari menga qadrdondir.

nogiron va uysiz bo'lib qolgan bolalarning ahvolini ko'rib, unda «Bolalar mahallasi»ni tashkil qilish fikri paydo bo'ladi. Shundan buyon «Bolalar mahallasi» ning tarbiyaviy g'oyalari butun dunyo bo'ylab tarqalmoqda.

Professor, bolajon German Gmayner 1986 yil Insbruk shahrida olamdan ko'z yumgan. Hozirda ushbu Xalqaro Jamiyatning faoliyatini Prezident sifatida Imst shahridagi «SOS-Bolalar mahallasi»da tarbiya topgan janob Gelmut Kutin boshqarib kelmoqdalar.

Bu xalqaro jamiyatning maqsadi bolaparvarlikdir. Bu jamiyat nosiyosiy, xalqaro tashkilot bo'lib, dunyoning 130 dan ortiq mamlakatida o'z faoliyatini olib borayapti. Bu jamiyat yetim, kam ta'minlangan bolalarning uyg'un o'sib-ulg'ayishi uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shulardan biri «SOS-Bolalar mahallasi» loyihasi bo'lib, uning vazifasi millatidan va dinidan qat'iy nazar nogiron, yetim va kam ta'minlangan bolalarning oilaviy muhitda to'laqonli tarbiyalanishlariga va kelajakda jamiyatda o'z o'rinlarini topishga yordam berishdir.

Bizning Respublikamizda bu uyushma 1998 yilda tashkil

Orzu

**OY YONIGA YETAYLIK**

Orzuga ayb yo'q. Bu gapni juda ko'p gapiramiz. To'g'ri-da, har bir inson orzu qiladi. Chunki orzusiz yashashning qizig'i yo'q.

Mening ham o'z orzularim bor. Kelajakda o'qituvchi, jurnalist bo'lishni xohlayman.

Kim bo'lishimdan qat'iy nazar, elimga, yurtimga halol xizmat qiladigan inson bo'laman. Tengdoshlarimga ham doimo orzu bilan yashashlarini tilayman.

Bo'sh vaqtlarimda she'r yozishni mashq qilib turaman.

*Oppoq orzu tulporiga mingancha*

*Osmon sari oy yoniga ketaylik.*

*Oydan turib butun ko'hna dunyoga*

*Nur ulashib, maqsadlarga yetaylik.*

**Shahlo SHOMUROTOVA,**

*Xorazm viloyati, Yangibozor tumanidagi*

*27- maktabning 11- sinf o'quvchisi.*

**SEN BILAN HAYOTIM GO'ZAL**

So'z bitmakka shoshilma qalam,

Gar bo'lmasa qalbida alam.

Ko'z yosh to'kmas besabab odam,

Sen ham bu gal shoshilma qalam.

O'z dardingga bitmakka zarhal,

Men yoningda turibman har gal,

So'rasang o't cho'zaman mash'al

Topilarmi sendan-da go'zal?

Muhabbatim o'zingsan g'azal,

Dildan ko'chib ketmassan azal.

Xayolim mavjida jo'sh urgan mahal,

Sen borsan hayotim gulshani go'zal.

**Gulnora MAJIDOVA,**

*Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri.*

**TARIXNI O'RGANISH UCHUN HAM**

Assalomu alaykum «Tong yulduzi»! Biz sening har bir sahifangni sevib mutolaa qilamiz. Biroq, gazetaning yangi sonlari bizga juda kech yetib keladi.

Gazetani o'z vaqtida o'qisak edi. Shunday bo'lsa-da, biz uni doimo kutamiz. Chunki uning sahifalarida tarixga oid maqolalar ham keng yoritiladi.

Tarixni chuqur o'rganish biz o'quvchilarning burchimizdir.

**Dilorom O'ROZBOYEVA,**

*Jizzax viloyati, Do'stlik tumanidagi Hamid Olimjon*

*nomli 9- maktabning 11- sinf o'quvchisi.*

*Kattalar,  
e'tibor  
bering*

**TILAK**

Mayin shabbodalar esar ohista,

Yillarning ortidan o'tadi yillar.

Zamon o'zgaradi, o'zgarar hayot,

Ko'kka ko'targuvchi qo'llar o'zgarar.

Ey, do'stim minmagin kibr otiga,

Bo'lmagin hech vaqt nafsning quli,

Unutma, baribir bo'ladi hazon,

Zaminidan ayro somonning guli.

Ortingdan qoldirgin ezgu xotiro,

Yaxshilarga ergash, yomonlardan qoch,

Mehringni hech kimdan darig' tutmagin,

Bag'ringni hamisha muhtojlarga och.

**ONAJON**

Olis shahar, turfa odamlar,  
Hisoblashmas sening bilan hech,  
Sog'inch solsa qayg'uli damlar,  
Onam, sizni o'ylayman har kech.

Axtaraman nigohlaringdan,  
Uqib olsa bo'lar shubhasiz.  
Vujudimga chang solayotgan,  
Sog'inch degan titroqli bir his.

Hech qaysi so'z sizniki kabi,  
Mehr bilan boqa olmaydi.  
O'ksib turgan yurakkinamga,  
Dalda o'tin yoqa olmaydi.

Bormoqlikka topmadim iloj,  
Olistlarda qoldi koshonam.  
Kutadilar keng ochib quloch,  
Yo'lga qadab ko'zlarin onam.  
Mehringizni tuyib yashayman,  
Siz o'rgatgan o'gitda dilim,  
Ko'p sog'inib, kuyib yashayman.  
Duingiz yoritar yo'lim,  
Mayli, shukr aytib Oллоhga,  
Oh urmoqdan tonay bir nafas,  
Ko'rmasam-da, mehribon onam,  
Tushlarimga kirib tursa bas...

**Ra'no ZIYATDINOVA, O'z.DJTU 1-kurs talabasi.**

Sport

«Kamolot» YOIHning Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxiotosh shahar Kengashi tashabbusi bilan «Bolalar» sportini rivojlantirish maqsadida o'quvchi

**«KAMOLOT» KUBOGI UCHUN**

yoshlar o'rtasida voleybol, futbol, yengil atletika bo'yicha turnirlar o'tkazildi.

Sportning yugurish turi bo'yicha voyaga yetmagan yosh o'smirlar o'rtasida o'tkazilib, o'g'il bolalardan 1-, 2-o'rinlarni egallagan Baxitjon Madrimov va Rustambek Axmetovlar, qiz bolalardan 1-, 2-o'rin sohibalari Amangul Qirikmiltiqova va Muborak Kamalovalar o'quv qurollari bilan mukofotlandilar.

Ushbu turnirda futbol bo'yicha g'olib deb topilgan 8-sport maktabi o'quvchilari «Bolalar» jamoasi birinchi sovrin «Kamolot» kubogini qo'lga kiritdilar. Ikkinchi sovrinni esa voleybol turi bo'yicha 7-maktab o'quvchilari egallashdi. Sportning Taekvando turi bo'yicha 5-sport maktabi o'quvchilari uchinchi sovrin sohiblari bo'ldilar.

**O'rozboy MATCHONOV,**

*«Kamolot» YOIH Taxiotosh shahar Kengash raisi.*

Navbatdagi «Siz tarixni bilasizmi?» deb nomlangan ko'rik- tanlovning tuman bosqichi bizning maktabimizda bo'lib o'tdi.

Tanlov to'rt bosqichdan iborat bo'ldi.

Birinchi bosqichda

**SIZ TARIXNI BILASIZMI?** guruhlariga tarix bo'yicha savollar berildi. So'ngra sardorlar bellashuvi bo'ldi. Shundan so'ng o'quvchilar tomonidan sahna ko'rinishi namoyish etildi. Yakuniy bosqichda esa uy vazifa, ya'ni quvnoq sahna ko'rinishi bo'ldi.

Unda tumandagi 30-, 145-, 198-, 216-, 282- maktabdan kelgan o'quvchilar barcha shartlarga aniq va to'liq javob berishga harakat qildilar. Ayniqsa, bizning maktabimiz o'quvchilari tomonidan ijro etilgan «Gul sayri» sahna ko'rinishi barchaning diqqatini tortdi. Sardorimiz Furqat G'oziyev topshirilgan savollarga a'lo darajada javob berdi. Bizning tinimsiz izlanishlarimiz, ko'p o'qishimiz o'z natijasini berdi. Birinchi o'rin bizning maktabimizga, ikkinchi o'rin 145- maktab o'quvchilariga va uchinchi o'rin 282- maktab o'quvchilariga berildi.

G'oliblik bizga ko'proq izlanish, o'rganish kerakligini yana bir bor eslatib o'tdi. Ko'rik- tanlovning tuman bosqichi biz o'quvchilarda katta taassurot qoldirdi.

**Zulxumor UMAROVA,**

*Hamza tumanidagi tarix faniga ixtisoslashgan 216- maktabning 11- sinf o'quvchisi.*

**SUMALAK**

Biz dadajonim va oyijonim bilan birgalikda buvimlarnikiga Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi Juma qishlog'iga bordik. U yerda go'zal Navro'z bayrami bo'ldi, buvijonim ta'kidlaganidek farishtalar ishtirokida qishloq ayollari sumalak tayyorlashdi. Qishloqdagi dugonalarim bilan rosa mazza qilib o'to'lanlar ustida o'ynadik. Mana, nihoyat qishloq adirlari. Buvijonim bizlarni to'g'ri Navro'z bayramiga boshladilar. Atrofdagi gul-chechaklarning chiroyidan ko'nglim tog'dek ko'tarildi. Toshkentga qaytibog'oyat qiziqarli ravishda o'tgan va o'zim ishtirok etgan sumalak tayyorlash jarayonini suratini zavq bilan chizdim. Tengdoshlarim, tomosha qiling, sumalak mana shunday katta qozonlarda g'oyat tozalik va ozodalik bilan tayyorlanar ekan.



**Yulduz NIYOZOVA,**  
*Toshkent shahridagi  
276-maktabning  
6- «V» sinf  
o'quvchisi.*



## 9 - May Xotira va Qadrlash kuni

MEN SIZNI SEVARDIM,  
MUHAMMAD YUSUF

She'ringiz o'qirdim yurakdan yonib,  
Goho baxt, goho g'am tashvishdan tolib,  
Mast bo'lib, to'yinib, ovunib, qonib,  
Men sizni sevardim - Muhammad Yusuf!

Zor qaqshab qoldi-ku, Andijoningiz,  
Oh urib yig'laydi onajoningiz,  
Bag'rini tig'laydi, jonajoningiz,  
Men sizni sevardim - Muhammad Yusuf!

Nomingiz qoldimu she'rlaringizda,  
Yana ne gap ketdi dillaringizda,  
Osuda yoting o'z yerlaringizda,  
Men sizni sevardim - Muhammad Yusuf!

Yozmagan she'ringiz men yozib o'tay,  
Muborak ruhingiz o'zim shod etay,  
Lek she'rim ko'rmasdan ketdingiz, netay,  
Men sizni sevardim - Muhammad Yusuf!

*Sitora MAJIDOVA,*  
Ohangaron tumanidagi 5 - maktabning 8-sinf  
o'quvchisi.



## BOBOM FAXRIMMENING

Mening buvam urushda,  
Fashist bilan jang qilgan.  
Do'stlari bilan birga,  
Dushman holin tang qilgan.  
Hatto o'q tekkanda ham,  
Yovga taslim bo'lmagan.  
G'alaba qilmaguncha,  
Aslo ko'ngli to'lmagan.  
Biz ham xuddi bobomdek,  
Yurtga posbon bo'lamiz.  
Mard, jasur bobom bor, deb,  
Faxrlanib yuramiz.

*Shahzoda RIZAYEVA,*  
Orom nomli bog'cha-maktabning  
4- «YE» sinf o'quvchisi.

## ONAM XOTIRASIGA

Kechalari mijja qoqmay alla aytgan,  
Tetapoya bo'lib yursam, yalla aytgan,  
Kechalari qo'rqsam doim birga yotgan,  
Mehribonim - onajonimni sog'indim.

Kamolimni ko'rmoq bo'lib duo qilgan,  
Onajonim, desam suyib, quvna b kulgan,  
Ko'zlarimga g'ubor kirsam, til-la olgan,  
Haloskorim, onajonimni sog'indim.

Jamolinga boqib-boqib, to'yamay ketgan,  
Dardlarini ichga yutib, qo'yamay ketgan,  
Osmon uzra mangu qushdek kuylab ketgan,  
Bulbulginam, onajonimni sog'indim.

Og'ushida yoz aylagan ayozimni,  
O'xshashi yo'q mehri quyosh mumtozimni,  
Shoir bo'lg'in o'g'lim, degan ustozimni,  
Sog'indim, oh, onajonimni sog'indim.

*Sardor XABIBULLAYEV,*  
Andijon viloyati, Jalolquduq tumani, O'zbekiston  
besh yilligi  
jamo'a xo'jaligi.

Ajdodlar ruhini yod etmoq biz - yosh avlodning muqaddas burchimizdir.  
Bobom Baqoxo'ja A'zamqori o'g'illari hayot bo'lganlarida bu yil 70 bahorni  
qarshilagan bo'lar edilar.

Bobomning hayot yo'llari bizga o'rmakdir. Ulardan biz halollik, mehnatsevarlik,  
oliyanoblik, qiyinchiliklarni matonat bilan yengish, ilm-fanni puxta egallash, el-  
yurt, ishining fidoyisi bo'lishni o'rgansak arziydi. Bobom butun  
umrlarini bilim chirog'i bo'lmish o'quv  
darsliklarini nashrga

## HALOLLIK MEROS QOLGAN

tayyorlashga

bag'ishlaganlar. Ular mohir tarjimon,

iste'dodli muharrir, o'tkir jurnalist bo'lganlar.

Bobomning bolalik yillari ma'shum 2-jahon urushi yillariga to'g'ri kelgan  
ekan. Otalari frontga ketgach ochlik, yetishmovchilik, urush va urushdan  
keyingi tiklanish davri qiyinchiliklariga qaramay, faqat

a'lo baholarga o'qib, o'rta maktabni oltin medal bilan  
tugatganlar. Bobomning adabiyotga ixloslari juda  
baland bo'lgan. Dadamning aytishlaricha, bobom  
o'z zamonasining shoirlari she'rlarini yod olishni  
juda yoqtirar ekanlar. Bir adabiy kechada G'afur  
G'ulomning she'rini shu qadar qoyilmaqom qilib  
o'qib beribdilarki, bundan ta'sirlangan shoirning  
o'zi sahnaga chiqib bobomning peshonalaridan o'pib:  
«Barakalla, o'g'lim, she'r o'qishda mendan ham  
o'tib ketding», deb maqtagan va esdalik uchun qo'l soatlarini

sovg'a qilgan ekanlar. Adabiyotga bo'lgan havas bobomni o'sha davrning eng  
yirik ilm dargohi bo'lgan O'rta Osiyo dorilfununiga yetaklagan. Dorilfununning  
filologiya fakultetida tahsil olgan chog'larida o'zbek adabiy tilining yaratilishiga  
qiziqib qolib, o'zbek tili shevalari va o'zbek adabiy tilining shakllanishi xususida  
chuqur ilmiy izlanishlar olib borganlar, bir qancha maqolalari markaziy nashrlarda  
chop etilgan.

Bu oliy dargohni imtiyozli diplom bilan tamomlagan bobom o'zbek adabiy  
tilining tozaligi, uning keng imkoniyatlarini ochib berish, bor jozibasini bilan  
kitobxonga yetkazish uchun butun umrlarini bag'ishlaganlar. Rus, arab, fors  
tillarini puxta bilishlari ish faoliyatlarida juda qo'l kelgan.

Hukumatimiz bobomning mehnatlarini munosib taqdirlagan. Ular Xalq maorifi  
a'lochisi, Respublikada xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi bo'lganlar.

Bobomning hayot yo'llari biz yoshlarni hozirgi farovon hayotimizning qadriga  
yetishga, ilm-fan cho'qqilarini chuqur egallashga, el-yurt, Vatan uchun fidoyi  
insonlar bo'lib yetishishga undaydi.

Men ham bobomdek inson bo'lishni orzu qilaman!

*Azizxon A'ZAMOV,*  
Poytaxtdagi 110-maktabning 7- «A» sinf o'quvchisi.

## SHUNI ANIQ BILAMAN

Bobojonimni mahallamizning yoshu qarisi Odil xoji ota deya ardoqlashardi. Chunki bobom  
hayotimizning mana shunday baxtli, farovon bo'lishi uchun o'z hissalarini qo'shganlar. Suronli  
urush yillarida fashist bosqinchilari bilan jang qilib, ona yurtimizga yorug' yuz bilan qaytganlar.

Shundanmi, bobom tinchlikni juda qadriga yetardilar. «Ko'rsatganiga shukur», deya biz  
nabiralarini erkalab, suyardilar. Biz ham ularni juda yaxshi ko'rardik. Atroflarini o'rab olib, jang

xotiralaridan so'zlab  
berishlarini iltimos  
qildik, rivoyatu  
hikoyalari maroq bilan  
tinglardik. «Bolajonlarim,  
bu tinch va farovon  
kunlarimizning qadriga  
yetinglar», deya nasihat  
qilishni kanda qilmasdilar  
ular...

Hozir bobojonim ham,  
Muharram xoji buvijonim  
ham oramizda yo'qlar.  
Har yili 9 may - Xotira va  
Qadrlash kunida ularning

9 nafar farzandlari, 36 nabira va 40 dan ziyod evaralari qabrlarini ziyorat qilamiz, nomlarini yod  
etamiz. Buva va buvijonimning dono maslahatlari, o'g'itlari hamon yodimizda. Ularga amal  
qilsak, kam bo'lmaymiz, kelajak hayotimizda qo'qilmaymiz. Men buni aniq bilaman.



*Shuhrat ODILOV,*  
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 37 - maktabning  
8 - «B» sinf o'quvchisi.

## YODIMDASIZ, ONAJON!

Bolaligimdan oyijonimning ertaklarini eshitib dunyoni tanidim, ularga ishonib ulg'aydim.  
Oyijonim ertaklarga qo'shib o'zlarining ko'rgan-kechirganlarini, boshidan o'tgan og'ir kunlarni  
ham so'zlab berardilar. Hayotning faqat yaxshi kunlardan, baxtu quvonchlardan iborat  
emasligini ham qayta-qayta ta'kidlardilar. O'sha paytlarda yosh ekanman, g'am nima, armon  
nimaligini tushunib yetmagan ekanman. Mana, hozir oyijonimning diydorini ko'rish, ular bilan  
to'yib-to'yib gaplashish armon bo'lib qolgan...

Bir kuni oyim og'ir betob bo'lib qoldilar. Ulardan ajralib qolishdan juda-juda qo'rqardim. Ajal  
biz bilan kengashib o'tirmas ekan. Oradan hech fursat o'tmay, onam olamdan o'tdilar.  
Dunyoda mendan baxtsizroq odam yo'q edi go'yo. Hanuz onajonim siymosini unuta olmayman.  
Xayolan ular bilan gaplashaman: «Onajon, tug'ilish bor, o'lish bor...» degan so'zlaringiz hamon  
yodimda.

Menga dalda bo'ldi nasihatlarimgiz.

Ko'nikdim, sabr topdim.

Tushlaringa kirsangiz, qanchalar xursand bo'lishimni bilsangiz edi.

Yonimda bo'lmasangiz ham, yodimda yashayapsiz, oyijon!

*Laylo MIRZALIYEVA,*  
Toshkent viloyati, Chinoz tumanidagi 26 - o'rta maktabning  
9 - sinf o'quvchisi.

# ESHIK OLDIN GUL QILAR NARXON Shoirlar - bolalarga

(Onam Savriniso Toshmat qiziga bag'ishlayman)

Ko'pdan buyon Narxon qiz  
 Ketar betob, bedarmon.  
 -Bandaman,-deydi,-ojiz,  
 Oллоhdan so'rar darmon.  
 Oddiy bir qiz bolaman,  
 Ilohimdir panohim.  
 Arsh-a'loga yetgaylar,  
 Manim chekkan uh, ohim.  
 Tabiblarni kezdin men,  
 Bormagan joy qolmadi,  
 Kundan-kunga ozdim men,  
 Birorta naf olmadim.  
 Birisi u dedilar,  
 Birisi bu dedilar,  
 Biri der, ta'sir qilgan,  
 Oyoqqa suv, dedilar.  
 Ilon zahrin tortdim ham,  
 Qolmadi bo'ri yog'i,  
 Topilmay qoldi malham,  
 Ne bo'ladi buyog'i.  
 Bir kun og'rib oyog'im,  
 Olovdek qizir tanim.  
 Cho'g'dek yonsalar tanim,  
 -Uh,-tortib, dedi onam.  
 Nima qilay, jon qizim,  
 Qo'ldan kelar choram yo'q.  
 Shukur qilgin yulduzim,  
 Chehrang ochiq, ko'ngling sho'x.  
 Deb jilmadi qoshimdan,  
 Hijolatda tursa ham.  
 Chir aylanib boshimdan  
 So'zin etardi davom.  
 Bir kun o'ynab ketarsan,  
 -Dardni deydilar - qo'noq.  
 Maqsadingga yetarsan.  
 Bu dunyoda bir qadam,  
 Yurilmagan inson ko'p.  
 Bu dunyoni ko'z bilan,  
 Ko'rolmagan inson ko'p.  
 Qiz qalbini xush ko'rdi,  
 Qlardi tinchib orom,  
 Qush uyquda tush ko'rdi,  
 Tushida Xizr Bobom.  
 Der, Betobsan jon qizim,  
 Gunohing nedir bolam.  
 Oллоhim bergay to'zim,  
 Dilni chil qildi nolang.  
 -Qanday gunoh jon bobo,

To'lmay turib o'n beshga.  
 Bo'lmaganman men jafo.  
 Na o'zgaga na xonga.  
 Yengi yo'q ko'yaklarni,  
 O'zimga ep ko'rmadim,  
 Charchatib so'ngaklarni  
 Saqich chaynab yurmadim.  
 Yerga tushsa non ushoq,  
 Oldim darrov egilib,  
 Yerga tushsa don boshog,  
 Turmadim men kerilib.  
 Goh duch kelsa keksalar,  
 Salom berib o'tdim men.  
 -Rahmat qizim, - desalar,  
 Shodon bo'lib ketdim men.  
 Ko'chada ham, uyda ham,  
 Odobni men buzmadim.  
 Qo'shni bilan men mudom,  
 Orani hech uzmadim.  
 Qarilarga yo'l berdim,  
 -Baraka top, - dedilar.  
 Momolarga qo'l berdim,  
 O'yna, kul, chop, dedilar.  
 Quloq osdim har doim  
 Valilarning so'ziga.  
 Onamning qilib rayin,  
 Tik boqmadim yuziga.  
 Menda ham bor nomus, or  
 O'zligimni saqlayman.  
 Har ishda bo'lib hushyor,  
 O'z burchimni oqlayman.  
 Vijdonimni, sha'nimni-  
 O'zgalarga sotmasman.  
 Vaysaqi yosumondek,  
 Safsatalar aytmaman.  
 -Yomon otga ming qamchi,  
 Yaxshiga biri yetar.  
 Donoga sir aysang gar,  
 Yuraging kiri ketar.  
 Notovonsan, bilaman,  
 Intil bo'lishga bardan.  
 Aytganimni qilsang sen,  
 Beraman o'zim yordam.  
 Tar sog'liqni har nishi-  
 Qadrini bilmoq kerak.  
 Insoniylik har ishni-  
 Ko'ngildan qilmoq kerak.  
 Choy ich qizim,-deganda



Uyg'onib ketdi Narxon  
 Ko'rgan tushin shu onda  
 Onaga qildi bayon.  
 -Qanday gunoh qildim men  
 Onajon, aytib bering.  
 Birovning bo'lsa haqqi  
 Tezroq siz qaytib bering.  
 Ona-bola ikkisi,  
 O'tgan umrni eslab  
 Eslab bir voqeani  
 Ko'z ochildi charaqlab.  
 Aldab bir kun onasin  
 Turib erta shaharda,  
 Dugonasi Xol bilan,  
 Tushgan ekan shaharga.  
 Ona sho'rlik shomgacha  
 Kuta-kuta qaridi,  
 -Kutay der tokaygacha  
 Qay ko'rgilik bor edi?  
 Bilib, qilgan gunohin  
 Xursand bo'lib ketdi qiz  
 Haq tinglar go'yo ohin  
 Orzusiga yetdi qiz.  
 Oyi, Xizr Bobomga  
 Gunohim bayon etsam.  
 Boshimni egmay g'amga,  
 Tezda tuzalib ketsam...  
 Oradan o'tib bir kun  
 Uxlar edi barcha jon.  
 O'tgan edi yarim tun,  
 Tush ko'rdi yana Narxon.  
 O'sha sirdan Xizr Bobo  
 Narxondan so'rar ahvol.  
 -O'sha kungi so'roqqa,  
 Javob bergin,-der darhol,  
 -Aldab bir kun onamni  
 Turib erta bahorda  
 Qilib o'rtog'im Xolni  
 Tushibman men shaharga.  
 Onajonim o'sha kun  
 Chekibdi rosa qayg'u.  
 Butun qalbin parchalab,  
 Ichgandek bo'ldi og'u.  
 So'ng der-og'ir oyog'im  
 Bog'langanman yostiqqa.  
 Tinchlik bermas har bo'g'im,  
 Lekin yo'q yara-chaqa  
 Yolg'on yashiq gapirsang



Ernazar RO'ZIMATOV

Obro'ga putur yetar.  
 Halovating yo'qolib,  
 Baxt ham qo'ldan ketar  
 Bormi yo boshqa sabab?  
 Aytgin qizim, bo'lsa sir.  
 Kir suvin yo'lga to'kib  
 Kasalga bo'lding asir.  
 Yo'ldan o'tgan har odam,  
 Ranjib, so'kib o'tdilar  
 Nafratin dildan shu dam,  
 Senga to'kib o'tdilar.  
 Ba'zilar oqar suvga  
 Has-cho'p tashlab qoladi.  
 Bir bechora chelakda,  
 Ichmoqqa suv oladi.  
 Ko'payadi notavon  
 Aytgin, kimdan ko'ramiz?  
 Ish ham ketmas goh ravon  
 Pishmaganmiz, g'o'ramiz.  
 Aytganimni qilsang bajo  
 Tez tuzalib ketasan.  
 Ko'rganlar ibrat olsin,  
 Maqsadingga yetarsan.  
 Xatosin bildi Narxon  
 Maqsadlari barqaror.  
 Yorishib dili shu on,  
 Malhamin topib borar.  
 Tezda turdi tuzalib,  
 Eshik oldin gul qildi.  
 Ko'rgan qoldi angrayib,  
 Duo qadrin u bildi.  
 Ko'cha-kuy tozalanib  
 Musaffo bo'ldi havo.  
 Ko'rganlar rahmat aytib,  
 Narxonni qildi duo.

## MUSTAHHKAM

**P**

kuzatishlari, 27 yillikish  
 tajribasiga ega, oliy  
 toifali fizika fani

**Muxbir safardan qaytdi**

internat  
 bitiruvchilarining 95  
 foizi Oliy o'quv

**I**  
 Bo'z

o'qituvchisi Mirzarahim Qurbonovning  
 namunali darslari, yana fidoyi, oliy

tumani

toifali, matematika fani ustoz

13

No'monjon O'rmonov, oliy

matematika

toifali, «Xalqlar do'stligi»

v a

ordeni nishondori, Bobur

iqtisodiyot

mukofoti sovrindori,

litsey-internati Andijon viloyati Xalqta'limi

ona tili

boshqarmasi reyting ko'rsatkichlari

Eshmatov, Cho'lpon

bo'yicha yuqori o'rinni egallab kelmoqda.

mukofoti

Bunga sabab o'quv dargohi izlanish va

sovrindori, Xalq

intilishda to'xtamaganligidadir. Ingliz tili

ta'limi

o'qituvchisi D.Shokirovning

fidoyisi, rus tili

«O'quvchilarni tezkor usulda testga

o'qituvchisi M.Mirzayev,

o'rgatish» mavzusidagi ilmiy ishi, I-toifali

Xalq ta'limi fidoyisi,

ustoz, ingliz tili o'qituvchisi Yo'ldoshali

matematika fani o'qituvchisi

Ismoilovning Isroil davlatiga tajriba

J.Qodirov, M.Baratov, R.Otaboyeva,

almashish uchun safari, M.

I.Qoratoyev, tarix fani o'qituvchisi

Sotvoldiyevaning EHM dasturini

M.Soyibnazarova, O. Umurzoqov kabi

tayyorlashi, Kattabekovanning biologik

muallimlarning xizmatlari beqiyos. Litsey-

o'qimoqdalar. Bilim kuchli maskanda  
 o'quvchilarning quroli ham bilim bo'ladi.  
 Litsey-internat direktori, oliy toifali ustoz  
 Adhamjon aka Tashtanovdan yutuqlar sirini  
 so'raganimda, u shunday javob berdi.

-Litsey-internatimiz 1994 yili tashkil  
 topgan. E'tibor bergandirsiz, asosan  
 matematika va iqtisodiyotga  
 yo'naltirilgan. Avvalo faoliyat  
 ko'rsatayotgan ustozlarimiz kuchli  
 bilimni, yangilik va izlanishdan  
 charchamaydilar. Ular o'zlarida bor  
 bilimni o'quvchilarga yetkazishni bosh  
 maqsad qilib olganlar.

Biz 6-sinfni tamomlaganlarni imtixon  
 asosida litseyimizga qabul qilamiz.

Bizda qat'iy intizom yo'lga qo'yilgan  
 bo'lib, o'quvchilar yotoqxona bilan  
 ta'minlanadi. Ularga uch mahal  
 issiq ovqat beriladi. Bo'sh

vaqtlarni to'g'arak va  
 kutubxonada

o'tkazadilar. Litseyda fan oyliklari  
 o'tkaziladi. O'quvchilar yildan-yilga  
 bu oyliklarni yanada qiziqarli, yanada  
 jonli o'tkazishyapti. Kompyuter  
 xonalari, internet tarmoqlari ham  
 o'quvchilarimiz xizmatida. Siyosiy  
 soatda esa o'quvchilar haqiqiy  
 diplomat bo'lishadi. Ular siyosiy va  
 ijtimoiy yangiliklarni mushohada qilib,  
 bahslashib, o'zlarining fikrlarini,  
 qarashlarini bildirishadi. Xullas, agar  
 bir kuningizni o'quvchilarimiz  
 davrasida o'tkazsangiz, ulardagi  
 uyg'oq qalb harortati, bilimga  
 tashnaliklarini his qilasiz. Beixtiyor  
 siz ham dars o'tishga kirishib  
 ketsangiz ajab emas...

Adhamjon akaning gapida jon bor.  
 Bilimga tashna qalblarni qondirish, ularni  
 ulg'aytirib, kelajakka tayyorlamoq darkor.  
 Bugungi kunda bilim yo'nalishlariga qarab,  
 o'quvchilar saviyasiga ko'ra faoliyat  
 yuritayotgan bunday maskanlarining  
 obro'yi tobora ortib borayotgani bejiz  
 emas. Chunki ular o'quvchilar kelajagi  
 uchun birinchi pillapoya vazifasini o'taydi.

Muharrama PIRMATOVA.



### MA'NAVIYAT DEHQONLARI

...Maktabda yangi o'quv yilidan xabar beruvchi birinchi qo'ng'iroq yangradi. Chehrasi kundedek

Oliygo'hi o'zbek tili va adabiyoti kulliyotining 1-bosqich talabasi ekan. O'qituvchilar oilaviy sulolasining uchinchi avlodi!

MOHIRRAHBAR: Muhabbatxon opaning o'quvchilari viloyat fan olimpiadalarida hamisha peshqadam. Jamoasi ahil va inoq!

### Ustoz haqida so'z

Ergash aka kamsuqum, ochiq fe'l odam ekanlar - birpasda «til topishib» ketdik.

Men ham bir zum bolaligimga qaytdim -  
e n t i k i b

# OMAD KALITI

## QADAMIDAN O'T CHAQNAGAN QIZ

munavvar ustozlarning dilni yayratuvchi so'zlari murg'ak qalblarda bilimga ishtiyoq uyg'otadi. Demakki, ta'lim- tarbiya jarayonida ma'naviyat hamali boshlandi. Fasohat fursati yetdi. Vatanga munosib farzandlar bo'lib yetishmoqqa intiling! Intilganga doimo tole yor!

Ma'naviyat dehqonlarining-muhtaram ustozlarimizning yolg'iz tilagi: «Ilohim, vatanimiz buyuk, farzandlarimiz barkamol bo'lsin!

### EHTIROMLAR TASHRIFI

Men ustozlarni zahmatkash dehqonga qiyosladim. To'g'ri topibmanmi? Sizga yoqdimi? Mehnatlarida uyg'unlik bor-da!

Muallim... Jamiyatimizning eng fidoiysi ham, eng hokisori ham ana shu mo'tabar va kamtarin inson! Shu fikringa nima deysiz? Lekin biz shu ulug'zotni qadrlashni hurmatini joyiga qo'yishni eplay olayapmizmi?

Biz ma'naviyat dehqonlarini kaftimizda olib yurmog'imiz zarur!

...Bugun men ajib ehtiromlarning tashrifiga guvoh bo'ldim. Toshkent viloyati, Zangiota tumani markazida sodir bo'lgan quvonchli voqeani sizga ta'riflab bermasam «tars» etib yorilib ketsam kerak-ov! Nega deysizmi? Unda men esa jon-dilim bilan so'ylab beray:

Tuman markazidagi hokimiyat binosi ro'parasida 14-o'rta umumta'lim maktabi joylashgan. Vaqt peshinga oqqanda uning devorlari shogirdlari ustozlar, sobiq sinfdoshlar tashrifidan yorishib ketdi!

Ular maktab rahbari Muhabbatxon opa Halilovanning hayotidagi qirqinchi davon-hamal mavsumi bilan qutlash uchun yig'ildilar.

### OILAVIY SULOLANING GUL-LOLASI

Avvalo yaxshilab tanishib oling: Muhabbatxon Halilova. Matematika fani o'qituvchisi. Xalq Ta'limi a'lochisi. Aspirant. Mirzo Ulug'bek nomidagi Milliy Universitet aspiranturasining geometriya bo'limi 2-bosqichida sirtidan o'qir ekanlar. Kelgusi yili matematika fanlari nomzodi degan sharafli unvon sohibasi bo'ladilar. Farishtalar omin desin! Niyatingizga yeting, Muhabbatxon opa!

### MEHRIBON ONA

Ikki nafar farzandlari bor. O'g'illari 7-sinfda, qizlari Mo'tabarxon esa Nizomiy nomidagi Toshkent Pedagogika

Muhabbatni onasi Manzuraxon aya yeri ko'kka ishonmay, gard yuqtirmasdan tarbiyaladi. Besh aka-

*Momo yer vujudi jimirlamoqda- quyoshning erkalovchi yog'dulari tabiatni noz uyqusidan uyg'otdi: Yangilanish, yasharish mavsumini boshlab berdi. Navro'zi olam ayyomi mahallalarga shodlik va quvonch gullarini olib kirdi.*

*Tuproq abri naysonlaridan yetildi. Dehqon ko'p kutdirib o'tirmadi- «hamal kirdi- amal kirdi», deya yerga ezgu niyatlarini qadadi: «Ilohim, yurtimiz to'kin bo'lsin!».*

*Bo-o-oshlandi... Qahramon shoirimiz ustozimiz Abdulla aka aytganlaridek, fasohat fursati yetdi! Namlikka to'yingan tuproqda o'rnidan dast turib ketgan ilk nishonalar quloq cho'zma bo'lib ko'zga tashlandi.*

ukaning ichida yakkayu yolg'iz qiz-da! Fe'l-atvori ham xuddi shunga mos, o'g'il bolacha! Bu tomoni otalari Ravshan akadan, bolalarga mehr esa onalari Manzura ayadan o'tgan ekan. Manzuraxon aya boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lganlar.

- Muhabbat jamoatchilik asosidagi tashkiliy ishlarda, davlat ishida juda qattiqqo'l,-deydi uning sobiq sinfdoshi, eng yaqin dugonalaridan biri - Toshketdagi 300- maktab litseyining fizika fani o'qituvchisi Saidaxon opa Mansurova.- Ish desa hamma narsadan voz kechib yuboradi. Qadamidan o't chaqnaydi-ishiga pishiq-puxta! Men dugonajonimni qirq yoshi bilan chin dildan qutlayman!

-Bolalik xo'p ajoyib narsa-da!- deyman Saida opani xotiro sari yetaklab.- Bolalik - beg'ubor davr! Aytingchi, sizlar o'qigan sinfni qizlar boshqarishgan deyishdi, shu rostmi?

-Rost bo'lganda qandoq!-Saidaxon opaning yuzlariga tabassum yoyildi. - Tartib-intizom tizgini Muhabbat ikkqalamizning qo'limizda edi. Lekin hamma tadbirlarning tepasida Muhabbat turardi.

- Bola boshdan, deganlari to'g'ri ekan-da? - deyman. -To'ppa-to'g'ri. Muhabbat bilan bir partada o'tirib, birga o'qiganmiz. Matematikaga zehni zo'r edi. Men esa fizikadan yaxshi edim. Ikkalamiz bir-birimizga yordamlashib- «Ustoz», «shogird» bo'lganmiz, ana shunaqa! - G'ururlanib qo'yadilar Saidaxon opa.

### ERGASH AKANING FAXRI

Muhabbatxon opaning tashkilotchi sifatida ko'zga tashlanishida sinf rahbarlari Ergash aka G'ulomovning hissalar katta bo'lgan ekan. U kishi bilan suhbatlashishni intizor bo'lib kutdik.

qo'ydim...  
-Men Muhabbatlarni 8-sinfdaligida qabul qilib olganman. Yaxshi- yomon kunlarni boshdan kechirdik. U paytlarda o'qishning yarmidan ko'pi dalada o'tar edi. Hali «ovosh»ga, hali paxta terimiga... Lekin shunday davrda ham qo'lidan kitob tushmagan.

Muhabbat sinf sardorligini qoyillatar edi, ishdan bo'yin tovlaganni joyiga qo'ndirib, ishni do'ndirib qo'yar edi. Mening o'ng qo'lim edi-da! Shuning uchun ham sinfga ish topshirib, tepasida qarab turishimga hojat yo'q edi. Ilgari men unga sinf rahbari edim, endi esa u menga maktab rahbari! Shundan boshim osmonga yetadi. Omadingni bersin, Muhabbat qizim, deyman.

Omada kaliti nimada, bilasizmi? Tirishqoqlik va talabchanlikda! Kimki astoydil harakat qilar ekan, hech qachon yutqazmaydi!

-Muhabbatxon o'qituvchilik faoliyatini 45-maktab yetakchiligidan boshlagan,- deydi biz bilan suhbatda

«Assalom, O'zbekiston!» studiyasining bosh rejissyori Xojiakbar aka. - O'shanda maktabda drama to'garagi tashkil qilganimiz haligacha esimda. Viloyat ko'rigiga chiqib, 1-o'rinni egallaganmiz. Albatta anchagina mukofot puli ham olganmiz. O'sha pulning hammasiga ruboblar, royal, sahna bezagi uchun pardalar sotib olganmiz. To'garakni tashkil qilish taklifi Muhabbatxondan chiqqan. Ey, bunaqa ishlarga zuvalasi pishiq. Bekorga tez orada tarbiyaviy zavuch bo'lmagan.

Mana, omad kaliti nimada ekan! Tashabbuskorlik va tashkilotchilikda! Muhabbatxon opa bu jihatlarni birovdan qarz olmagan, ular ustozning qon-qoniga singib ketgan ekan. Qoyil!

-Muhabbatxonning sinfda aytgani-aytgan, degani degan edi, - deya xotirlaydi Saida opa. - Qani, birorta shumtaka topshiriqdan bosh tortib ko'rsin-chi! Oladiganini olardi-sinf majlisida boplab «tuzlar» edi. Muhabbat bilan hazil ketmaydi, deyishar edi uchiga chiqqanlar ham. Hozir ham shunday- bir tuki o'zgarmagan! U rahbarlik qilayotgan hozirgi maktab ham tumanimizning manaman degan maktabi!

### NIHOYAT, QO'L BO'SHAGANDA...

Muhabbatxon opa oddiy, odamshavanda ayol ekanlar. - Mehmonlar bilan ushlanib qoldim, - dedilar opa uzr ma'nosida, - Xafa bo'lmaysizda, muxbir uka ...

-Bugungi, hamal to'yigiz bilan «Tong yulduzi» ning ko'p ming sonli mushtariylari nomidan tabriklayman, - dedim men. - Siz bilan suhbatlashgunga qadar bekor o'tirmadim- siz haqingizda bir dunyo gaplarni bilib oldim! Ochig'i, sizga juda ham havasim kelib ketdi, ustoz!

Sizdek ma'naviyat dehqonlari bor bo'lsin, omad sizlarga hamisha yor bo'lsin!

Aziz bolajonlar! Sizlarga bir olam quvonch va shodlik ulashuvchi, tinglaganingizda beixtiyor o'zingiz ham jo'r bo'lib ketadigan, shoir Anvar Obidjon qalamiga mansub **Eshmat o'g'li Mamajon!**, **Qulog'im sizda domlajon...**, deya boshlanuvchi

O'g'il bola emasman-mi, goho sho'xligim tutib, sinfdosh qizlarning jahlini chiqarib, narsalarini yashirib qo'yardim. Ular mening bu qilig'imdan xafa bo'lishib, hech ma'nili gaplashishmasdi, chunki doimo sochlaridan tortib janjal chiqarardim-da yoki sochlarini sekin bir-biriga bog'lab

ularning qo'shiqlarini kuylardim.

Maktabni tugatganimdan so'ng Farg'ona Davlat Pedagogika Oliyohida tahsil oldim. Ikki-uch yilcha maktabda dars berdim. So'ngra 1979 yili Toshkentga Qoriyoqubov nomidagi filarmoniyaga ishga keldim va

## BOBONGGA BALLI, MOMONGGA HAM!

quvnoq qo'shiqni kim ijro etganini bilasiz-a? Ushbu siz sevib tinglaydigan qo'shiq Mustaqillik bayramining 2 yilligi arafasida ijro etilgan va hamon sevimli qo'shiqlarimiz qatorida kuylanmoqda. Ana shu quvnoq qo'shiqning ijrochisi el sevgan hofiz Nuriddin Haydarovdir. O'zbekiston xalq artisti N.Haydarov o'zining barcha kundalik yumushlarini bir tarafga qo'yib, «bolalar, tanaffus»... deya siz bilan dildan suhbatlashmoqchi.

-Qorako'z bolajonlarim, men Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanida tavallud topganman. 5-sinf gacha shu yerdagi maktabda tahsil olib, ota-onam asli Farg'onalik bo'lganliklari bois, oilaviy sharoit tufayli

Farg'ona viloyatining Quva tumanidagi Akbarobod qishlog'iga ko'chib o'tganimiz sababli maktabni shu yerda davom ettirganman.

Bolaligim qishloqda o'tgan. Oilamizda 4 nafar qizlar orasida yolg'iz o'g'il bo'lganim bois, dadam doimo ko'klarga ko'tarardi, shu sabab biroz erkaroq o'sganman.

To'g'risini aytsam, maktabda hamma fanlarga birdek qiziqmasdim. Adabiyot, tarix, astronomiya kabi fanlarni sevib o'qirdimu qolganlarini esa zaruriyat tufayligina o'zlashtirardim. Ammo badiiy asarlarni ko'p o'qirdim. O'qiganim sari «Sariq devni minib», «O'zbek xalq ertaklari», «Farg'ona tong otguncha», «Ufq» kabi asarlardagi qahramonlar hayotiga bo'lgan qiziqishim tobora ortardi.

Bilasiz, qishloqda bolalar uchun doimo yumushlar bisyor. Hech kim ko'chada bekor yurmasdi, bekorchi yurishga uyarlardi ham.

5-sinf daligimdayoq dalada otam bilan ketmon chopardim. Biz bolalarni yaganaga, paxta terimiga olib ketishardi. Hammasiga ulgurish lozim.



ketardim. Ayniqsa Muhabbat, Qoriyaxon kabi qizlar mening gaplarimga hech ishonmasdi. «Ishonmasalaring ishonma!», - derdim g'o'ddayib, mana ko'rasanlar, baribir mening aytganim bo'ladi.

Hali maktabga bormasimdan oq qalbimda san'at olamiga kuchli qiziqish uyg'ongan, chunki onam rahmatli, joylari jannatda bo'lsin, Tursunoy opaning ovozi juda shirali bo'lib, xalq qo'shiqlarini maromiga yetkazib aytardi.

Esimda, o'sha paytlarda musiqa asboblari kam bo'lardimi, qancha xarxasha

qilsam ham ota-onam rubob olib berolmagan edi. Taxtachaga uzun sim tortib olib uni barmoqlarim bilan ting'illatib, baland ovozda ashulalar xirgoyi qilib yurardim. Maktabga borganimdan so'ng tuman markazidagi musiqa to'garagiga qatnay boshladim. Mening qiziqishim o'tkincha havas emasligini bilgan otam yap-yangi rubob olib keldi, go'yo men uchun bu kun bayram edi. Rubobimni olganimcha to'garakka shoshildim. Ilk ustozim O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Muxtorjon Teshaboyev to'garakda bizga musiqadan dars o'tardi. 6-sinf daligimda maktab sahnasida «Sog'insam otajonim» nomli qo'shiqni ijro etdim. So'ngra bu qo'shiqni qishloq radiouzelidan kuyladim.

Qancha olqishlar bo'lgan edi ota-onam sha'niga. Iliq so'zlar aytilib, qishloqdoshlarim falonchining o'g'li deyishgandi.

Keyinchalik 8-sinfga o'tganimda Moskva shahriga (VDNX) ko'rgazmaga borib qo'shiq kuyladim. Faxriddin Umarov, Tavakkal Qodirov, Sherali Jo'rayev kabi el sevgan san'atkorlarning qo'shiqlarini sevib tinglardim va

qo'shiqlar aytga boshladim. Rosti, o'z ovozim bilan elga tanildim, lekin bolaligimda rassom bo'lishni orzu qilganman. Bahor gullarini, tabiat manzaralarini, kengliklarni suratlarini chizishni yaxshi ko'rardim. Yana qo'shiqqa qaytsam, men shoir tanlamayman. O'zimga yoqadigan mazmudor she'rlar bo'lsa qo'shiq qilib kuylayveraman. Ko'pchilik mendan qo'shiq kuylayotganingizda nihoyatda jiddiysiz, buning sababi nima, deb so'raydi. O'zi hayotda ham o'ta jiddiyman. Hadeb bo'lar-bo'lmas joylarga o'zimni urib ketavermayman. Qo'shiq kuylayotganimda ham san'atkor odobiga qat'iy rioya qilaman.

**-Hozirda Toshkent shahar Ichki Ishlar Bosh boshqarmasining Ma'naviyat markazida boshliq lavozimida faoliyat ko'rsatayotgan Nuriddin Haydarovdan farzandlaringiz orasida san'at yo'lini tanlaganlari bormi? - deb so'radik.**

-Hozircha yo'q, - dedi xonanda. - Katta qizim Nigoraxon - Sharqshunoslik Oliyohi talabasi, Nodiraxon - litseyda tahsil olmoqda, Umidaxon - savdo kollejida, Gulmiraxon esa tibbiyot kollejida talaba. O'g'lim Xojiakbar - 7-sinfda, Jasurbek esa 5-sinfda o'qishadi.

**-7-may kuni Xalqlar Do'stligi saroyida konsert dasturingiz bo'lar ekan. Ushbu dasturdan bolajonlarga atalgan qo'shiqlar ham joy olganmi?**

-Bu dasturimda go'daklar uyidagi bolatilidan aytiladigan ashulam bor. Kelajakda bolalar uchun yana yangi qo'shiqlar yaratishni niyat qilganman, buni albatta amalga oshiraman.

**-Yurtimizning qo'shiqsevar bolajonlariga tilaklaringiz.**

- Beg'ubor bolalikning beg'ubor qalbli bolalari «Bobongga balli, momongga balli, otangga balli, onangga balli», kabi olqishlarni olib, yayrab o'saversinlar. Ular qiyqirishib o'ynayotgan yurtimiz kengliklari mudom yaxshilikka, osmonimiz musaffolikka, zaminimiz esa tinchlikka makon bo'lsin!

*Jamila ERDONOVA suhbatlashdi.*


## QO'SHIQ SEVARLAR BAYRAMI

YAqinda O'zbekiston Davlat konservatoriyasida Mirzo Ulug'bek tumani Xalq Ta'limi bo'limi va tuman Qo'shimcha ta'lim majmuasi hamkorligida «O'zbekiston Vatanim manim» qo'shiq bayrami an'anaviy

bolalar ko'rik-tanlovining yakuniy bosqichi bo'lib o'tdi. Tanlovda Qo'shimcha ta'lim majmuasi badiiy havaskorlar jamoalari hamda tumandagi 222-, 35-, 50-, 187-, 210- umumta'lim maktablar hamda 101- kar-soqov maktab-internatidan ham san'atsevar o'quvchilar ishtirok etdi.

Shuningdek, tuman Qo'shimcha ta'lim majmuasidagi «Shodlik», «Yoshlik» klublarida tashkil topgan raqs jamoalari, doirachilar dastasi, «Yulduzcha», «Bulbulcha» dastalari, xor jamoalari, xalq cholg'u asboblari va folklor jamoalari qatnashdi.

Ayniqsa, 101- kar-soqov bolalar maktab-internatining raqs jamoasi ijrosidagi tojikcha «Lazgi» raqsi, 286- maktab o'quvchisi



N.Zoitovning «Ona» qo'shig'i, 205- maktab o'quvchisi D.Rahimova ijro etgan xorazmcha raqs atrof dagilarga birdek ma'qul bo'ldi.

Shahar bosqichida g'olib deb topilgan o'quvchilar va jamoalar Respublika miqyosiga yo'llanma oldilar.

**Shirmonoy ASRANOVA,**

**Qo'shimcha ta'lim majmuasining ma'naviyat va ma'rifat bo'lim boshlig'i.**





*Ustoz yozadi*

**MEN SENI SOG'INDIM, SINFDOSH!**

Sinfdosh... Bu so'z zamirida bolalikning beg'ubor lahzalari, sho'x-shodon, beqayg'u, samimiy xotiralar yashirin. Sinfdosh, senga bo'lgan pokiza tuyg'ularim, sog'inch ila qo'limga qalam tutqazdi bugun.

Mana, maktab deb atalmish qutlug' dargohdan uchirma bo'lganimizga ham bir necha yil bo'libdi. Katta hayot yo'lida ohista odimlab borayapmiz.



Maktabdagi eng sho'x, to'polonchi hisoblangan o'quvchilar ham bugun jiddiylashib qolishgan, maqsad sari intilib yashayaptilar. Qay birimiz hamshira, tarbiyachi, yana kimdir oshpaz, biri duradgor.

Sinfdoshim, birinchi o'qituvchimiz yodingdami? Hamma qizlar ularga havas qilardik, ulardek shirinso'z bo'lishga intildik. «Ustoz» deya ardoqlardik ularni.

O'sha bolalarcha samimiy havas, mehr meni shu kasbni egallashga undadi. Bugun meni ham «ustoz» deb chaqirishyapti. O'zimizning maktabda, biz o'qigan sinfda jajjigina o'quvchilarga dars beryapman. Ularning ziyrak nigohlarida, shirin so'zlarida, sho'xliklarida bolaligimizni ko'rgandek bo'laman. Ko'zlarida bizning baxtiyor onlarimiz yashirin go'yo...

Kunlar oylarni, oylar yillarni quvalashib o'taverar ekan. Qaniydi, bir zumga bo'lsa ham bolaligimiz, sinfdoshlik, o'quvchilik kunlarimiz qaytib kelsa. Sho'x kulgular, qiy-chuvga to'la sinfxonamizda yana birga o'tirsak. Qaniydi...

Sinfdosh, bugun men seni, o'sha beg'ubor lahzalarni juda sog'indim. Sen-chi, meni sog'indingmi?

*Nargiza BAHODIR qizi,*


*Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi A.Qodiriy nomli  
13 - maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi.*

*Avtomobil tarixi*

**«FORD MOTOR» ASOSCHISI**

Amerikalik texnika ixtirochisi Genri Fordning bolaligi fermada o'tgan ekan. U daraxt kesadigan arradan bo'lak umuman texnik mexanizmlarni ko'rmagan ekan. Ammo bolg'a va murvatlar bilan ishlashni ham yaxshi ko'rarkan.


17 yoshli Genri hech kimga so'z demay, Detroy shahriga ketadi. U yerda soatsoz ustaga shogird tushib, pul ishlab topishga bel bog'laydi. To'rt yil mobaynida mexanizm haqida ko'p



bilimga ega bo'lgach, singan buyumlarni tuzata boshlaydi. Uyiga qaytgach, otsiz o'zi yuradigan arava yasashni o'ylaydi. Genrining qo'shnilarining uyidan eshitilayotgan taraqa-tuqlar, shovqin-suronlar va g'irchillagan ovozlarni eshitib, hayron bo'lishar, Genrini jinnilikda ayblashardi.



1892 yil benzin dvigatelida yuradigan birinchi mashinani ixtiro qilganida, uning hamshaharlari yana ajablanmadi. Negaki, mashina shovqinli yurar, otlarni hurkitib yuborardi. Bunga ko'nikkan odamlar bu safar bir o'yinchoqqa qaragandek, uning mashinasiga beparvo bo'lishgan.




Yillar o'tib, 1903 yil Genri Ford «Ford motor» avtomobil kompaniyasiga asos soldi. 1908 yildan «Temir Lizzi» mashhur «Ford T»ni ishlab chiqara boshladi. Bunday qulay, ishonchli mashina 20 yil mobaynida ishlab chiqarildi.

Qarabsizki, ko'p o'tmay, 50 yoshli Genri Ford multimillionerga aylandi, uning mashinasi esa AQShning ramziga!

Ford jamg'armasi 1936 yil Amerikada tashkil etildi. Uning maqsadi demokratiyani mustahkamlash, qashshoqlikni bartaraf etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo'lib, unga 8 mlrd. dollar grant ajratilgan.

*Ijtimoiy yo'nalishdagi Respublika  
maxsus gimnaziyasining 4- «E» sinf o'quvchisi  
Behzod IKROMOV tarjimasi.*

*Sichqoncha Jerriga qopqonlardan ehtiyot bo'lib, pishloqqa yetib olishiga ko'maklashing.*



*Tuzuvchi: Madina SAIDMURODOVA,*

*Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi 35 - maktabning 6-«A» sinf o'quvchisi.*


**SOZ YO'NI**

*Aziz bolajonlar! Bugun sizlarning e'tiboringizga navbatdagi so'zlarni havola etamiz. Eng ko'p so'z tuza olgan va bizga birinchilardan bo'lib maktub yo'llagan bilimdonlarni, albatta, sahifamiz orqali e'lon qilib boramiz. Bilimingizni sinashga shoshiling.*

**MUVAFFAQIYATSIZLIK  
ILOHIYLASHTIRISH  
RAG'BATLANTIRILGAN**

*Tuzuvchi: NILUFAR.*

**KROSSVORD**



**Bo'yiga:** 1. Chorva ozuqasi. 2. Taqvodor ayol. 4. Ot zoti. 5. Kulgi qahramoni. 6. Fransiyadagi shahar. 8. Erkin Vohidov asari. 9. Pichoqning charxlanadigan qismi. 12. Do'stlar, yaqin kishilar. 13. Non turi. 18. Jun gazlama. 19. Fursat. 21. Kuchli spirtli ichimlik. 22. Qozog'istondagi daryo. 23. Mineral. 25. Odam organizmidagi eng uzun qon tomiri. 26. Sariq gulli ko'p yilli o'tsimon o'simlik.

**Eniga:** 1. Sport turi. 3. Qochiriqlarga asoslangan hozirjavoblik musobaqasi. 6. Qarg'ish olgan. 7. Yozuvchi ... Muxtor. 10. Yaponiyalik futbolchi. 11. Oldi ochiq xona. 14. Faryod. 15. Old tomoniga teskari tomon. 16. Tuya. 17. Aziz ne'mat. 20. Pardoiz-andoz. 24. Amudaryoning qadimiy nomi. 25. E'lon. 27. Qamishzor. 28. Hurmat, nufuz. 29. Uzum navi. 30. Ma'danli suv. 31. Yunonistondagi oliy mansabdor shaxslar.

*Tuzuvchi: Sherbek YODGOROV,  
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi  
84 - maktabning 6- «A» sinf o'quvchisi.*

«Istiqlol umidlari» to'garagimizning navbatdagi mashg'uloti do'stlik uchrashuviga aylanib ketdi, desam mubolag'a bo'lmaydi. Sababi, Toshkent viloyati, Chinoz tumanining «Chinoz hayoti» gazetasi qoshidagi «Yosh qalamkashlar» to'garagi a'zolari mehmonimiz bo'lishdi. Yosh qalamkashlar bir-birlari bilan tanishib olishdi. Ijodlaridan namunalar o'qib, fikr almashishdi.

-To'garagimiz a'zolari ijodidan namunalar gazetamizning «Sirdosh» nomli sahifasida berib boriladi, deydi to'garak rahbari, Chinoz tumanining «Chinoz hayoti» gazetasi muxbiri Gulbahor Ortiqxo'jayeva. - Bu esa ularni ilhomlantiradi. Bolalar bilan uyushtirgan ijodiy muloqotlarimiz, mashg'ulotlarimiz ta'sirida ularda adabiyotga, badiiy ijodga, jurnalistika kasbiga mehr uyg'onayotganini, qalam bilan birga bo'lish ularning qismatiga



### Bizning to'garak

aylanayotganini sezyapman. Yaqinda to'garagimiz a'zolaridan biri - yosh deputat, shahrimizdagi 2-o'rta maktabning 11-sinf o'quvchisi, «Umidli yoshlar» klubining prezidenti Xasan Hotamgy'bilan uchrashishdi. Darvoqe, Xasanning o'zi ham to'garagimizning faol a'zosi edi.

To'garagimiz a'zolarining kitobga mehrlari bo'lakcha klubxona ularning eng sevinli maskani. Haftaning har juma kunlari tahririyatga yig'ilib, ijodlaridan namunalar o'qishadi. O'qigan kitoblarini muhokama qilishadi...

To'garak a'zolarining she'r va hikoyalari, qatra va lavhalari, chizgan rasmlari to'garagimiz a'zolariga juda yoqdi. Ular ijodidan namunalarni sizning e'tiboringizga ham havola qilishni lozim topdik.

### BIR KUN...

Bahor keldi shodlik boshlab,  
Qishdek darding qarisin.  
Osmon yig'lar, sen yig'lama,  
Ko'zdan yoshing arisin.

Yetar shuncha azob chekding,  
G'aming alami bormi?  
Kundek kulib qara axir,  
Endi keng dunyo tormi?

Falak ko'z yoshi tinmasa,  
Qayg'udan toshsin ummon.  
Qanot qoqqan orzuingga,  
Bir kun yetasan, ishon!

Umida NURMUHAMMEDOVA,  
3 - o'rta maktabning 9 - sinf  
o'quvchisi.

### MAJNUNTOL

Anhor bo'yida yolg'iz,  
Turgan qari majnuntol,  
Shamol esganda g'iz-g'iz,  
Sochlaringni yig'ib ol.

Ajib hodisalarning,  
Guvohisan majnuntol.  
Siru asroring ochib,  
Bizlarni qoldirgin lol.

Do'sting bo'lay men sening,  
Sirdoshim bo'l sen mening.  
Kelsam anhor oldiga,  
Chaqiraqol yoningga.

Shamsiddin MEDETOV,  
35 - o'rta maktabning  
11 - sinf o'quvchisi.

Hayot deb atalmish ulkan charxpalak,  
Aylanib turarkan to'xtamay bir zum.  
Ona-chi, bolam deb bo'lar jonsarak,  
Betob bo'lsa farzand bo'larkan dilxun.  
Omad bizdan yuzin o'g'irsa butkul,  
Kim yig'lar, kim kular, ona kuyadi.

### ONA

Yo'q bo'lsa amaling, yuz o'g'irsa do'st,  
Onangga farqi yo'q, onang suyadi.  
-Onajon,-deb uning tiz cho'k poyiga,  
Oq sutin oqlashga yetmaydi umr.  
Bilgin, ona borki, olam munavvar,  
Bir umr mehnatga yetkazma putur!

Odina NAZAROVA,

Toshkent viloyati, Bo'ka tumanidagi 1 - o'rta maktabning 7 - «G»  
sinf o'quvchisi.

Qadim o'tgan zamonda Mardon ismli juda odobli, kamtar va ishchan bir bola yashagan ekan. U odamlarni kuldirishni, xursand qilishni yaxshi ko'rar ekan.

Bir kuni qo'liga qog'oz-qalam olib, tasavvuridagi masxarabozning rasmini chizibdi. U xuddi jonlidek chiqibdi. «Qaniydi, bir dumalab mana shu masxarabozga aylanib qolsam», deb xayolidan o'tkazibdi u...

Yarim tunda mo'jiza ro'y beribdi: jon kiribdi. U Mardonning orzularidan Qo'liga mo'yqalam olib, rangli yotgan Mardonning yuzlarini bo'yab qichqira boshlaganda u yana Tong otibdi. O'rirlarni o'g'lini ko'rib, tanimay qolibdi. turishini ko'rgan Mardon qarabdi va hayratdan qotib ko'rib, masxarabozga aylanib holdan dam quvonsa, dam xafa bo'lib qolishidan cho'chirkan. tursin, ko'chaga chiqishga O'ylay-o'ylay, sirkka borishga ko'rib, ishga qabul qilibdi. Ilk bor tomoshabinlar uni iliq qarshi olishibdi.

Qissadan hissa shuki, astoydil niyat qilsang, albatta maqsadingga erishasan.

Marhabo UMAROVA,

1 - o'rta maktabning 9 - «V» sinf o'quvchisi.

## MASXARABOZ

Ertak



chizgan rasmiga xabardor ekan. bo'yoqlari bilan uxlab qo'yibdi. Xo'rozlar qog'ozga aylanib olibdi. yig'ishtirayotgan onasi Uning hayron tikilib yugurib borib oynaga qolibdi. Yuzlarini paypaslab qolganini fahmlabdi. Bu bo'lar ekan. Bir umr shunday Maktabga borish u yoqda ham uyulib, 3 kun uyda o'tiribdi. qaror qilibdi. Direktor uni sinab sahnaga chiqqandayoq

### Ertak-topishmoq

Qadim zamonda bir kishi o'zini eng mohir ish ustasi deb hisoblar ekan. Bir kuni shu yurt shohi uni huzuriga chorlabdi va undan qanday kasb egasi

## HAM SOVG'A, HAM JAZO

ekanligini so'rabdi. U o'z mahoratini ko'rsatib bermoqchi bo'libdi va zarur anjomlar kerakligini aytibdi. Unga hamma aytgan narsalarni keltirib berishibdi. Ikkita ustunga arqon bog'lab, ignani arqonga qo'yibdi. Arqonni uzgan ekan, igna ustunga sanchilibdi. Shoh uning san'atiga qoyil qolibdi va sovg'a tariqasida 1000 dinor hadya etibdi. Keyin unga 100 darra qamchi urdiribdi.

Shunda vazir: «Shohim, nega uni 100 darra urdirdingiz?», deb so'rabdi. Shoh vazirga shunday javob qilibdi: ...

Bolalar, ertakning davomini o'zingiz topishga bir urinib ko'ring-a.

Nodir NORINBOYEV,

26 - maktabning 7 - sinf o'quvchisi.

### Sabog

## AYB O'ZIDA

Oltin baliq to'rga tushdi. O'zini o'zi qutqarmoqchi bo'lib, havoga sakradi, bo'lmadi. Kuchli zarb bilan to'rni teshib chiqmoqchi bo'ldi, yana uddalay olmadi...

U ulkan dengizda hech kimnikiga o'xshamaydigan chiroyini ko'z ko'z qilib, erkin yashardi. Oddiy baliqlarni pisan qilmas, ularning ustidan kular, havolanib, istagan tarafiga suza olardi...

Hozir esa suzish u yoqda tursin, nafas olishga ham madori kelmayotgandi. Oltin baliqcha tipirchilay-tipirchilay, oxiri jon taslim qildi. Uni kuzatar ekanman, o'ziga bino qo'yishlik, manmanlik, atrofda qilarni mensimaslikning umri naqadar kalta ekanligiga yana bir bor amin bo'ldim.

Shahnoza PIRVALIYEVA.

Ona yurtini - oltin beshing  
**TONG**  
**Yulduzi**

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:  
**O'ZBEKISTON**  
**MATBUOT VA**  
**AXBOROT**  
**AGENTLIGI,**  
**O'ZBEKISTON**  
**RESPUBLIKASI**  
**XALQ TA'LIMI**  
**VAZIRLIGI,**  
**«KAMOLOT»**  
**YOSHLAR IJTIMOY**  
**HARAKATI,**  
**«SOG'LOM AVLOD**  
**UCHUN» XAYRIYA**  
**JAMG'ARMASI**

**BOSH MUHARRIR:**  
Umida ABDUAZIMOVA  
**TAHRIR HAY'ATI:**  
Shuhrat AHMEDOV,  
Jamoliddin FOZILOV,  
Oynisa  
MUSURMONOVA,  
Qahramon  
QURONBOYEV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Po'lat MO'MIN,  
Mukarrama  
MURODOVA,  
Tohir MULLABOYEV,  
Ergashvoy SARIQOV.

Nashir «Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi kompyuter  
bo'limida terib  
sahifalandi.

Hajmi A-3, 2 bosma  
taboq.

«Sharq» nashriyot -  
matbaa aksiyadorlik  
kompaniyasida ofset  
usulida bosildi.

Adadi - 36380.

Korxonada manzili:  
«Buyuk Turon»  
ko'chasi, 41.

Buyurtma № 1 - 318  
Gazetani

Ma'suda  
IRISNAZAROVA

sahifalandi.

Navbatchi:

Gulyuz  
VALIEVA

Ro'yxatdan o'tish  
tartibi № 000137  
Manzilimiz: 700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi,  
30-uy.

Tel: 144-63-08  
144-63-75